

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”**

**MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

# **Elektr energetikada ilmiy tadqiqot” fani**



**I.X.Siddikov. TIQXMMI-MTU “Elektr  
ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya  
manbalari” kafedrası professori**

**2-ma'ruza: Patent  
axboroti davlat tizimi**

## **REJA:**

- 1. Patentlarni turlari va intellektual mulk**
- 2. Patentlarni rasmiylashtirish**
- 3. Patentlarni ekspertizasi va ro'yxatdan o'tkazish**

**Patent axboroti-** bu eng zamonaviy texnik yutuqlardan to‘la hajmda va imkon qadar tez foydalanish demakdir. Patent axboroti nafaqat ilmiy–texnik, balki katta tijorat qimmatiga ega. Patent axboroti o‘z ichiga texnik axborot, huquqiy axborot, iqtisodiy va boshqa axborot turlarini oladi. Aholining patent axborotidan foydalanishini engillashtirish uchun ixtisoslashgan patent jamg‘arma va patent ma’lumotlar bazalari ishlab turibdi. Ular patent axborotini qidirish va zarur ma’lumotlarni tahlil qilishni osonlashtirish uchun ularni tartibga soladi va saqlaydi.

Qayd etib o‘tamizki, berilgan muhofaza hujjatlari muhofaza hujjati turining harfiy belgisi (ixtiroga patent-IAP, ixtiroga dastlabki patent- IDP, foydali modelga patent- FAP, sanoat namunasiga patent- SAP, sanoat namunasiga dastlabki patent-SDP va tovar belgisiga guvohnoma- MGU) va beshta raqamdan iborat ketma–ket nomerlanadigan nomerlarga ega. Masalan, IDP 04452 nomeri ixtiroga berilgan 04452–sonli dastlabki patentni bildiradi. Muhofaza hujjatlaridan farqli ravishda talabnomalar har yili yangidan nomerlanadi, bunda talabnomaning dastlabki ikki raqami talabnoma topshirilgan yilni bildiradi. Masalan, IHAP 9400582 nomeri bu ixtiroga talabnoma 1994 yilda 582-son bilan berilganligini bildiradi.

Axborot resurslarining keskin ko'payganligi davrimizning alohida xususiyati bo'ldi. Bizni o'rab turgan ulkan axborot oqimida o'zimizga zarur axborotga ega bo'lish va bu oqimda to'g'ri yo'l topish qiyin bo'lib qoldi. Bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, agar uskunalarni sotib olish bo'yicha kontrakt tuzayotganimizda shu sohada eng so'nggi ishlanmalar yoki bozor kon'yunkturasini o'zgarishlarini bilmasak, bu pulni behuda sarflashga olib kelishi mumkin. Axborotlardan xabardor bo'lmaslik yomon oqibatlariga olib kelib, butun bir davlatlarga katta iqtisodiy zarar etkazishi mumkin. Demak, axborot oqimida to'g'ri yo'l tuta bilish, o'zi uchun zarur axborotlarni topish, ularni tahlil qilish va amaliyotda qo'llanish har qanday biznes muvaffaqiyatining zarur shartidir. Shuning uchun hozirgi vaqtda ilg'or ilmiy ishlanmalar, ixtirolar, foydali modellar, bu ob'ektlarning tijorat qimmati to'g'risidagi axborotdan foydalanish, u yoki bu bozor kon'yunkturasini bilish, uning o'zgarishlarini oldindan aytib berish, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish imkonini beradigan universal axborot manbalarining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda bunday universal axborot manbai patent axborotidir.

Qayd etib o‘tilganidek, har qanday axborot qidiruvini O‘zbekistonning patent hujjatlari bo‘yicha boshlash zarur. Masalan, ixtiro deb kutilayotgan ishlanmaning yangiligini o‘rganishda biz xuddi shunday ixtironi ochib bergan O‘zbekiston patenti mavjudligini aniqlashimiz mumkin. Bu holda boshqa mamlakatlarning patent hujjatlari bo‘yicha ixtironing yangiligini tadqiq qilishni davom ettirish hech qanday ma’no kasb etmasligi aniq.

Bugungi kunda O‘zbekistonda quyidagi patent hujjatlari nashr etiladi:

Berilgan dastlabki patent va patentlarga ixtirolarning tavsifi;

Patent berilgan foydali modellarning tavsifi;

“Rasmiy axborotnoma” rasmiy patent byulleteni, unda ro‘yxatga olingan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va seleksiya yutuqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar chop etiladi.

“Rasmiy axborotnoma” rasmiy byulleteni odatda quyidagicha tuzilishga ega bo‘ladi:

□ Birinchi bo‘limlarda davlat reestrda ro‘yxatga olingan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va boshqa ob‘ektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar chop etiladi. Ro‘yxatga olingan tovar belgilarining rangli tasvirlari byulletenning oxirida alohida bo‘limda keltiriladi;

□ Keyin ro‘yxatga olingan litsenziya shartnomalari va sanoat mulkining turli obyektlariga huquqlarni berish to‘g‘risidagi shartnomalar chop etiladi;

□ So‘ngra Patent idorasining turli rasmiy xabarlarini, intellektual mulk sohasidagi turli me‘yoriy hujjatlar, bitimlar chop etiladi;

□ Shundan so‘ng patent egalari nomlarining o‘zgarishi, muhofaza hujjatlarining amal qilishini muddatidan ilgari bekor qilish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va hokazo chop etiladi;

□ Oxirgi bo‘limda ushbu byulletenda chop etilgan obyektlarning sistematik va nomer ko‘rsatkichlari keltiriladi.

Har bir “Rasmiy axborotnoma” byulletenida barcha axborotlar ikki tilda: o‘zbek va rus tillarida chop etilishini ta’kidlab o‘tamiz.



Fan sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish ilmiy maqomining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin;

Sohaviy va obyektligi. Bu yerda fan biror sohaga tegishli va albatta, o'z obyektiga egaligi nazarda tutiladi;

1. Fan qamrovi. Fan sohasi o'zining qamroviga ega bo'lishi, uning belgilangan chegaralarining mavjudligi;

2. Faoliyat vositalarining mavjudligi. Fanning obyekt bilan ishlashi uchun biror vositasining mavjud bo'lishi nazarda tutiladi, masalan, axborot texnologiyalari axborot tashkil etuvchisi ma'lumotga ishlov berish, uzatish va qabul qilish matematik va texnik vositalariga ega;

3. Tadqiqot usullarining mavjudligi. Jarayonni o'rganish usullari, obyektga ishlov berishning fizik va matematik usullari nazarda tutiladi;

4. Ilmiy tadqiqot olib boruvchi subyektning mavjudligi. Bu yerda tadqiqotchi nazarda tutiladi, uning mavjud bo'lmasligi fanning yuritilishiga asosiy to'siq hisoblanadi.

Endi patent axborotini qidirishning asosiy usullarini ko‘rib chiqamiz. Odatda, quyidagi usullardan keng foydalaniladi:

1. Mavzuviy yoki predmetli qidirish. Masalan, ushbu qidirish turida texnika darajasidan shu ixtiro bilan o‘xshash texnik yechimlar aniqlanadi, qidirish biror–bir qiziqarli texnik belgilari yoki o‘lchamlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

2. Nomli qidirish. Bunday qidirish muayyan firmaning texnikaning biror–bir sohasi (sohalari)dagi ixtirosini aniqlash zarur bo‘lgan hollarda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, muayyan ixtirochining faoliyati to‘g‘risida axborot olish juda muhim va hokazo. Nomli qidirish nafaqat texnik, balki tijorat qimmatiga ham ega bo‘lishi ravshandir;

Hujjatning rasmiy belgilari, masalan hujjat nomeri, ustuvorlik sanasi, hujjatning chop etilishi va turi (patent, talabnoma, foydali model) bo‘yicha qidirish. Masalan, ixtironing patentga layoqatligini tadqiq etish, ob‘ektning patent sofligini baholashda ushbu qidirish usulidan foydalaniladi.

Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ma'lumotlar bazalariga ulanish. Ma'lumotlar bazalariga <http://www.epo.org> manzilini terib yoki bevosita [http:// ep.espacenet.c'm/](http://ep.espacenet.com/). EPI veb sayti orqali chiqish mumkin. Ma'lumotlar bazalariga ulangandan so'ng kompyuterda "B1- esp@cenet-your gateway to patents" oynasi paydo bo'ladi. Ma'lumotlar bazalari bilan nafaqat ingliz, balki nemis va fransuz tillarida ishlash mumkinligiga e'tiborni qaratamiz

2. Foydalanuvchiga uchta faol darcha taklif etiladi:

- Simple Text- mavzuviy va predmetli qidirish uchun;
- View a patent application- nomerlar bo'yicha qidirish uchun;
- Company name search- nom bo'yicha qidirish uchun.

## **Nazorat savollari**

1. Patent axboroti nima?
2. Patent axborotining elektron ma'lumotlar bazalarini tushuntiring

## Adabiyotlar

1. Райзберг Б.А. Диссертация и ученая степень. Пособие для соискателей. — 3-е изд., доп. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 411 с.
2. Шермухамедова. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик. —Т.: «Фан ва технология», 2014, 512 бет.
3. Л.В. Перегудов, М.Х. Саидов, Д.Е. Аликулов. Илмий тадқиқот методологияси. Тошкент: "Молия" нашриёти, - 2002 й. 124 б.
4. С.С. Гуломов ва бошқалар. Системавий ёндашиш асослари.- Тошкент.: "Молия", 2002 йил, 230 б.
5. Кузин Ф.А. Диссертация: Методика написания. Правила оформления. Порядок защиты. Практическое пособие для докторантов, аспирантов и магистрантов. 2-е изд., доп. — М.: Ось-89, 2001. — 320 с.
6. Dr. Mark A. Baron Guidelines for writing research proposals and dissertations. Division of educational administration University of South Dakota. proposal or dissertation is written. The publication manual of the American psychological association, 5th edition 2001. Pg -56.
7. Radjabov A. Ilmiy tadqiqot asoslari: o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — Т.: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012. — 208 b.